

IT-KELAJAK KASBI



TOSHTEMIROV E. S.,

*STARS International University talabasi, 2
Kutb ko'chasi, Tashkent 100077, Uzbekistan.
e-mail:toshtemirovelshod@gmail.com*

USANOV F.A.,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
M.T.O'rəzboyev nomidagi Mexanika va
inshootlarning seysmik mustahkamligi
instituti kichik ilmiy xodimi, ko'ch. Do'rmon
yo'li 33, Toshkent, O'zbekiston, e-mail:
usanovfurqat94@mail.ru*

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp116-119>

Annotatsiya. Ushbu maqolada IT-soha hayotimizda qanchalik kerak ekanligi xususida qisqacha yoritilgan. Bugungi kunda jahonda va mamlakatimizda IT-sohaga kata e'tibor qaratilmoqda. Ushbu soha vakillariga esa talab borgan sari ortib bormoqda. Mamlakatimizda bu sohaning asl mutaxassislari ko'p emas. Shuning uchun hukumatimiz o'z e'tiborini bu sohani rivojlantirishga, yoshlarni bu sohaga jalb etishga qaratgan. Poytaxtimiz markazida qad ko'targan va foydalanishga topshirilgan IT-parki ham bu soha mamlakatimizga qanchalik kerakligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. information technology, one million uzbekcoders, fullstack, backend, frontend, freelancer, birja, deadline, YaIDXP.

Bugungi kunlarda «IT» so'zi keng qo'llanilmoqda. Xo'sh, bu so'z o'zi qanday ma'noni anglatadi?

IT ingliz tilidan olingan «Information Technology» so'zlarining qisqartmasi bo'lib, o'zbek tilida «Axborot texnologiyalari» degan ma'noni anglatadi.

Information Technology bu — axborotni hosil qilish, uni yig'ish, tarqatish, saqlash, qayta ishlash, himoyalash kabi vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan texnologiyalardir. Insonlar telefon, planshet,kompyuterlarda foydalanadi.

IT so'zini ishlatganda bir narsaga e'tibor bering. Hech qachon «IT-texnologiyalari» deya qo'llamang. Agar bu jumlanı to'g'ridan to'g'ri o'zbekchaga o'girsak, «Axborot texnologiyalari texnologiyalari» ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu esa lug'aviy jihatdan noto'g'ri.

Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib oldik. Xo'sh, hayotda bu jumla bilan nimalarni bog'lashimiz mumkin?

- muloqot paytida (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta, chat...);
- axborot olish chog'ida (xabarlar, ob-havo ma'lumotlari...);
- axborotni qayta ishlashda (matematik amallarni bajaruvchi dasturlar, grafiklar, media soha, elektron hujjatlar...);
- o'qish jarayonida (elektron kitoblar, interaktiv darslar, qo'llanmalar...);
- dam olishda (kinolar, musiqalar, o'yinlar...).

Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagи innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15 dekabr, 2022 yil.

Demak, bugungi hayotimiz ushbu soha (IT-soha) bilan chambarchas bog'liq ekan. Qanday ish qilishimizdan qat'i nazar, hattoki dam olayotganimizda ham IT-xizmatlaridan foydalanar ekanmiz. Oddiy mobil telefonimiz ham IT-qurilma hisoblanadi, chunki biz bu qurilmada qandaydir ma'lumotlarni almashamiz, , dam olish uchun foydalanamiz va hokazo. [1]

Ish jarayoni kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgani sababli har bir korxonada alohida IT bo'limlar mavjud, hattoki umuman kompyuterga aloqasi bo'lmagan korxonalarda ham. Shuning uchun bu sohaga qiziqish va talab katta.

IT sohaning yo'naliishlaridan biri dasturlashdir. Dasturlash turli xil sohalarda qo'llaniladi. Misol keltirsak, svetoforning ishlashi, robotlarni boshqarish, va ularni yaratishda, haydovchisiz avtomobilarni boshqarishda, dasturlarning o'rni katta. Dasturlarni tuzuvchilarni esa dasturchilar deb ataymiz.

Men: "**One million Uzbekcoders**" dan "**Fullstack**" yo'naliishini tanladim. *Fullstack dasturchi - web-dasturchi* hisoblanadi.

Web-dasturchi web-i-lovalar, web-saytlar ishlab chiqadi. Web-dasturchi ikki qismga bo'linadi. Bular: **Backend** dasturchilar va **Frontend** dasturchilardir.

Backend dasturlarning asosiy qismi va yadrosi hisoblanadi. Asosiy qoidalar shu qismda yoziladi.

Frontend qismi tashqi qismi, ya'ni foydalanuvchiga ko'rindigan qismi bo'lib, tekstlarning rangi, ma'lum bir tugma bosilsa, nimalar bo'lishi aynan frontend qismida amalga oshiriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bilan mashg'ul bo'layotgan yoshlar sonini oshirish va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, talaba yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda respublikamiz bo'y lab kadrlar siyosatini oqilona yuritish eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda frilancerlik eng tez rivojlanayotgan kasblardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda «frilans» so'zi tobora tez-tez uchrab turibdi, xususan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxona, tashkilot va oliy ta'lim muassalarida o'tkazilayotgan yig'ilish va forumlarda tilga olinmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi davlat muassasasi tomonidan ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bilan mashg'ul bo'layotgan yoshlar sonini oshirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, talaba yoshlarni va xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularga qo'shimcha daromad manbalarini topishga ko'maklashish maqsadida bir qancha tadbirlar tashkillashtirib kelinmoqda.

Xususan, joriy yilning 3-iyunida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.Shermatov boshchiligidagi frilancerlar va frilancer bo'lish istagida bo'lganlar bilan ochiq muloqot tashkillashtirildi. Ushbu tadbirda 200 dan ortiq yoshlar masofaviy tarzda ishtiroy etishdi.

Joriy yilning 2-iyulida Amity universitetida «Frilancingga birinchi qadam» mavzusida forum tashkil etildi. Ushbu forumga frilancerlik sohasida muvaffaqiyat qozongan va hozirgi kunda IT-tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar jalb qilindi hamda 300 dan ortiq yosh avlodning ishtiroyi ta'minlandi.

Joriy yilning 3-choragida 10 dan ortiq Oliy ta'lim muassasalarida «Frilancerlik - bu kelajak kasbi» mavzusida forumlarni o'tkazish va talaba-yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularga qo'shimcha daromad manbalarini topishga ko'maklashish rejalashtirilgan.

Frilancer sifatida faoliyat olib borishda ahamiyat berish lozim bo'lgan muhim ma'lumotlar:

Dasturchi, dizayner, tarjimon, buxgalter, SMM mutaxassis, copywriter, onlayn-konsultant, audio va videotahrirchi, ma'lumotlar kiritish va boshqa masofadan turib ishslash imkoniga ega soha vakillari frilancer bo'la oladilar. Upwork, Fiverr, Envato, Toptal, Freelancer.com, Kwork, Fl.ru, 99 designs, Jooble, Flexjobs, Simplyhired, Guru, behance, Peopleperhour va boshqa platformalarda frilancerlik faoliyatini yuritish mumkin.

Frilancerlik platformalari Payoneer, Qiwi, Webmoney va boshqa to'lov tizimlari bilan ishlaydi. Bundan tashqari, frilancer platformalari Paypal, Skrill, Tellnet to'lov tizimlari bilan ishlaydi, ammo ushbu to'lov tizimlari orqali O'zbekistonda pul yechib olish imkoniga mavjud emas, lekin xalqaro onlayn xarid va to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Frilancerlik faoliyati orqali ishlab topilgan pullarni Payoneer, Wire transfer, Qiwi, Webmoney to'lov tizimlari orqali yechib olishlari mumkin.

Sevimli mashg'ulotdan pul ishlab Frilancer bo'lish mumkin. Inson o'ziga yoqadigan va amalga oshira oladigan ish bilan mashg'ul bo'lish orqali qo'shimcha daromad topish imkoniga ega bo'ladi.

Asosiy ishni tashlab, frilancerlikka o'tishdan oldin bozorni o'rganish va tegishli buyurtmalar bilan saytlar yoki xizmatlarni topish lozim.

Inson vaqtini o'zi tashkil qiladi va bevosita mijozlar bilan ishlaydi, shuning uchun biznes muvaffaqiyati faqat o'ziga bog'liq bo'ladi.

Buyurtmachi frilancning vazifani to'g'ri va aniq tushunganligi bo'yicha qiziqadi. Shuning uchun u texnik topshiriqni shakllantiradi, bu so'rovning mohiyatini tushuntiradi. Ko'p hollarda frilancer natija kerak bo'lganda qidiriladi, shuning uchun ko'rsatilgan muddatlarga e'tibor berish lozim.

Frilancer ishonchi komil bo'Imagan yirik loyihalar yoki murakkab buyurtmalarni qabul qilmagani va imkoniyatlarni oldindan baholashga harakat qilgani ma'qul. Misol uchun, agar vazifa frilancerda mavjud bo'Imagan qo'shimcha uskunalar yoki kuchlarni talab qilgan taqdirda, bu natijaga qanday ta'sir qilishini o'ylab ko'rish lozim.

Frilancer xohlagancha ko'p topshiriqlarni olishi mumkin, lekin o'z ishini o'z vaqtida topshirishni unutmasligi darkor. Tirishqoq va topshiriq muddatiga amal qiladigan frilancerlar bozorda qadrlanadi. Muddatlarni ba'zan «deadline» deb atashadi, bu ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, "oxirgi sana" degan ma'noni bildiradi.

Frilancda bo'shliq va qat'iy ish jadvali bo'lmaydi. Frilancing erkinlik beradi, lekin juda ko'p mass'uliyat va o'z-o'zini tashkil qilishni talab qiladi. Hech narsani unutmaslik va ishni rejalashtirish uchun telefonagi taqvim yoki shunchaki bloknotdan foydalanish lozim. Uxlashni va dam olishni ham unutmaslik darkor.

Buyurtmachini topishda frilancer o'zining maqsadli auditoriyasini aniqlab olishi kerak. Bular maktab o'quvchilarining ota-onalari, biznes egalari, uy bekalari va boshqalar bo'lishi mumkin. Ular ijrochilarni turli joylardan qidiradilar, lekin umumiyl platformalardan bo'lgan Upwork.com, Fiverr.ru, Kwork.ru va turli xil platformalar mavjud.

«Frilanc topish» yoki aniq soha «buxgalter topish» so'zi bilan maxsus saytlar (ba'zan «birja» deb nomlanadi)dagi so'rov orqali buyurtmalarni topish va tanlash mumkin. Buyurtmachi buyurtmasini tanlagan ijrochilarni o'z xohishiga ko'ra saralab oladi. Frilanc ijrochini buyurtmachi tanlashi uchun uning reytingi baland va ijobji

izohlarga boy bo'lishi lozim. Ushbu natijaga erishish va mijozlarning ishonchini qozonish uchun biroz vaqt talab qilinadi. Buning uchun frilanc o'z ijodi va intilishidan to'xtamasligi lozim.

Frilanc internetda kontekstli reklamani ishga tushirishi mumkin. Ish faoliyatidagi namunalar va ma'lumotlarini kichik promo-sahifani yaratishi va mijozlar shu reklama orqali uning sahifasiga yo'l olishi mumkin.

Frilancerlar Davlat soliq qo'mitasiga shaxsan tashrif buyurgan holda, «SoliqUz» mobil ilovasi yoki YaIDXP (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali) orqali onlayn tarzda ariza topshirishlari mumkin. O'z-o'zini band qilgan shaxslar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.12.2020-yildagi 806-Qarorida to'liq tanishib chiqish mumkin.

O'zini o'zi band qilganlar yakka tartibdagi tadbirkorlar singari buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklaratsiyasini topshirishlari shart emas. Daromad va xarajatlarni ixtiyoriy ravishda "SoliqUz" ilovasida to'g'ridan to'g'ri kuzatib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://community.uzbekcoders.uz/post/it-keljak-kasbi-5ffaf67ac4678266f610421>